

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING MAQSADLARI VA VAZIFALARI

Turanova Umida Muxirboevna

**Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 9-
DMTT direktori o'rinbosari**

Aliyeva Zuhra Alisher qizi

**Andijon viloyati, Andijon shaxar
18-DMTT direktori o'rinbosari**

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishning istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, ushbu vazifalarni Konsepsiya doirasida bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Konsepsiya, Maqsadli ko'rsatkichlar, Davlat-xususiy sheriklik, Inklyuziv ta'lim

GOALS AND TASKS OF THE CONCEPT FOR THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS UNTIL 2030

Annotation

The article scientifically analyzes the prospects for the development of the preschool education system until 2030 and shows ways to gradually implement these tasks within the framework of the Concept.

Keywords: Concept, Target indicators, Public-private partnership, Inclusive education.

O'zbekistonda bugungi kunga kelib 17 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. 2021 yilda Maktabgacha ta'lim tizimiga bolalar qamrovini 65 foizga yetkazdi. 2024 yilda birinchi choragida bu ko'rsatkich 78 chiqdi. Shuningdek, 85,2 foiz 6 yoshli bolalarni majburiy 1 yillik ta'lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan.

Ma'lumki, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashtirish jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog'chalar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya'ni 7 yil ichida respublikamizda bog'chalar soni 3 barobar oshib, bog'cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 27 foizdan 78 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir.

Sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o'ringa ega bo'lgan 7 ming 400 ta xususiy bog'cha tashkil qilindi. Bu maqsadlar uchun 1 trillion 850 milliard so'm imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltirilib, 20 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihalar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2019 yilda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, ushbu sohadagi davlat siyosati yo'nalishlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, egaligida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari belgilangan.

Qayd etilgan Konsepsiyada 2030 yilgacha 3-7 yoshdagi bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Xususan, 2022 yilda yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, bir paytlar bog'cha bo'lgan binolarni qayta Maktabgacha ta'lim vazirligi hisobiga qaytarish, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2021 yilgi dasturlarga muvofiq 35 ta ob'ekt qurib bitkazilish, 129 ta bo'sh inshoot foydalanishga topshirilish va 261 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'mirlanish ishlari oxiriga yetdi. Bu esa qo'shimcha yangi 32,7 ming o'rinlarni yaratadi.

Maktabgacha ta'limda xususiy sektorni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu tariqa, 2020-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim vazirligi umumiy qiymati 4,89 trln. so'mga teng Davlat-xususiy sheriklik haqidagi shartnomalarni imzoladi (ulardan 1,1 trln. so'mi tadbirkorlar hisobidan ajratilgan bo'lsa, 3,8 trln. so'mi - imtiyozli kreditlar hisobiga to'g'ri keldi). Foydalanishga topshirilishi kutilayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari quvvati 147,9 ming o'ringa teng. 2021 yilda yana 2 mingta oilaviy va 420 ta davlat-xususiy sheriklik doirasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ochildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida hamda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish mavzusida tuman (shahar) Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan o'quv-seminarlar, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadbirlarda "OPEN EMIS" tizimidagi xato kamchiliklarni tuzatish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Hujjat malakali pedagogik kadrlarining yetishmovchiligi, davlat MTTlarining to'lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi, hamda davlat MTTlarining o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

Qabul qilingan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tengi yo'q hisoblanadi: birinchidan, mazkur hujjatda erishilgan natijalarning o'lchanishini ta'minlaydigan aniq, maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Xususan, 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo'yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta'lim tashkilotlari quvvatlarining kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2021 yilga kelib o'rinlar miqdori yangi MTTlarni ochish hisobiga 56,8% ga (2030 yilga kelib - 132,3% ga) ortadi, hamda davlat-xususiy sherikligi va respublikaning chekka tumanlari uchun aktual bo'lgan muqobil maktabgacha ta'lim shakllari rivojlantiriladi. Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ishlar ikki yo'nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlashda, qayta tayyorlashda, malakasini oshirishda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish. Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi, hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miqdorda pul mablag'larining zarurligi to'g'risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi.

Qabul qilingan Konsepsiyaga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish (Maktabgacha ta'limning davlat standartini ishlab chiqish, MTT tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish);

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish ("Birinci qadam" davlat dasturini va inklyuziv ta'limni keng miqyosda tatbiq etish, o'quv materiallarini ishlab chiqish, maktabgacha va boshlang'ich ta'limning bog'liqliligini ta'minlash);

- qamrovni orttirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim olishlari uchun teng huquqlikni ta'minlash, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish (yangi MTTlarni qurish va eskilarini rekonstruksiya qilish, bepul bir yillik maktabga tayyogarlikni keng miqyosda tatbiq etish, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini rivojlantirish, respublikadagi barcha MTTlarni kommunal xizmatlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash);

- innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish (axborot ma'lumotlar bazasini va multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish, uy ta'limi va otionalarning ma'lumot olishi uchun raqamli ta'lim resurslarini tatbiq etish, respublikaning barcha MTTlarini kompyuterlar bilan ta'minlanishini va Internet tarmog'iga ulanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish);

- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning shaffofligini va samaradorligini ta'minlash (samarali monitoring mexanizmlarni yaratish, manfaatdor shaxslarga ma'lumotlarni taqdim etish, muomalalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, chet el investitsiyalarini va grantlarini jalb qilish, me'yoriy kishi boshiga moliyalashtirishni birin-ketin tatbiq etish);

- kadrlarni tanlashda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish (xalqaro ta'lim standartlarini tatbiq etish, chet el ekspertlarini jalb qilish va chet elga tajriba orttirish safarlarini tashkil etish, xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, kadrlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish);

- MTTlarda bolalarning sog'lom va muvozanatli ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash (MTTlarni mahsulotlar bilan ta'minlanishining markazlashtirilgan monitoring tizimini yaratish, outsorsing shartlari asosida maxsuslashtirilgan korxonalarini jalb qilish, alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kompleks yordamni takomillashtirish).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Konsepsiya 2030 yilgacha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan har yili 1 dekabrga qadar o'tayotgan yilning natijalarini o'rganib chiqish asosida keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi" ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.

12. «Ilk Qadam» davlat dasturi. - T., 2018.

13. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.